

Manzarali o‘simliklar guruhlanishi

Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Biologiya(turlari bo‘yicha) 3-bosqich
jumayevad34@gmail.com

Annotatsiya; Manzarali o‘simliklar shahar va qishloqlarni ko‘kalamzorlashtirish, istirohat bog‘lari, ijtimoiy, ishlab chiqarish binolari va turar joylarni bezatish, guldastalar yasash uchun o‘stiriladi. Chiroyi, barglari, gullari, mevalari rangi, tanasining g‘aroyib shakllari (shoxlari osilgan, soyabonsimon, ustunsimon) bilan tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar; bir yillik, ikki yillik, ko‘p yillik, daraxt, buta, yarim buta, manzarali, gul, barg, ildiz, poya, urug‘, harorat, namlik, gullash, sharoit.

Dunyoda 250 000 ga yaqin gulli o‘simliklar turi ma‘lum va yer yuzida ular keng tarqalgan. Gullar morfologik, biologik va xo‘jalik belgilari bo‘yicha keskin farqlanadi. Manzarali o‘simliklarning o‘zi ham o‘z navbatida guruhlarga bo‘linadi:

1. Bir yillik manzarali o‘simliklar.
2. Ikki yillik manzarali o‘simliklar.
3. Ko‘p yillik manzarali o‘simliklar.
4. Yopiq maydon o‘simliklari.
5. Barvaqt yetishtiriladigan o‘simliklar.
6. Daraxt va butalar.

Manzarali bir yillik o‘simliklar

Bir yillik o‘simliklar — barcha hayotiy sikllari bir vegetatsiya davrida, ya‘ni bir yil davomida urug‘idan unib chiqib, o‘sib, gullaydigan, urug‘ beradigan va qurib tamom bo‘ladigan o‘simliklardir. Bu gruppadagi ba‘zi bir gullarning o‘suv davri juda qisqa bo‘lganligi tufayli ularni yoz bo‘yi ochilib turishi uchun bir necha marta ekiladi. Manzarali o‘tsimon o‘simliklarning ushbu gruppasiga mansub bo‘lgan gullarning ko‘pchiligida urug‘idan ko‘payish nisbatan oson. Shunga ko‘ra ular manzarali gulxona hosil qilish uchun juda qo‘l keladi. Vegetatsiya davri uzoq kechadigan bir yillik o‘simliklar bahorgi va kuzgilarga bo‘linadi. Bahorgi bir yillik o‘simliklar bahor va yoz oylarida o‘sib, hayot siklini 1 —5 oyda tugatadi. Kuzgi bir yillik o‘simliklar urug‘lari kuzda darhol unib chiqib, tomir oladi barglari rivojlanadi va shu tarzda qor tagida qishlaydi. Bahorda esa ular rivojlanishini davom ettiradi, gullaydi, urug‘ beradi so‘ng qurib qoladi. Bu guruhga kuzgi javdar, bug‘doy, shuningdek ko‘pchilik begona o‘tlar (jag‘-jag‘, bo‘tako‘z va boshqalar)

kiradi. Bir yillik o‘simliklar o‘zgarib turuvchi iqlim sharoitiga moslashgan ko‘p yillik o‘simliklarning evolyutsiya jarayonida shakllangan.

Manzarali ikki yillik o‘simliklar

Ikki yillik - manzarali o‘tsimon o‘simliklar gruppasiga ko‘proq ikkinchi yili ochiladigan va urug‘ beradigan o‘simliklar kiritiladi. Chinnigullar (turetskaya), peristaya (pat shaklidagi), grenadin, shuningdek, qo‘ng‘iroq gullar janubiy viloyatlarning qulay sharoitida ikki yildan ortiq umr ko‘rishi mumkin bo‘lsa ham, ko‘p yillik o‘simliklardan hisoblansalar ham xush manzara hosil qilish amaliyotida ulardan ikki yillik o‘simlik sifatida foydalaniladi. Bu guruhdagi barcha manzarali o‘simliklar urug‘dan ko‘paytiriladi. O‘zbekiston sharoitida qishni bemalol o‘tkaza oladi. Erta bahorda ularning o‘sishi tezlashadi, yozda uzoq vaqt ochilib turadi. Lekin qish sovuq kelgan yillarda ularning ba‘zilari nobud bo‘lishi, issiqroq bo‘lganda esa deyarli ko‘karib turishi, hatto ochilishi (kapalakgul, dastargul) mumkin. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan ikki yillik manzarali o‘simliklar kapalakgul, bo‘tako‘z, qo‘ng‘iroqgul, dastargul va boshqalardir.

Manzarali ko‘p yillik o‘simliklar

Ko‘p yillik o‘simliklar - ikki yildan ortiq yashay oladigan o‘simliklar guruhidir. Yer shari florasining ko‘pchiligi ko‘p yillik o‘simliklar kiradi. Ko‘p yillik manzarali o‘simliklar gulli manzara hosil qilishda muhim ahamiyatga egadir. O‘simliklarning yer usti qismi har yili qishda nobud bo‘ladi, ildizi yoki ildiz poyasi saqlanib qoladi. Bahorda esa undan yangi poyalar o‘sib chiqadi. Ko‘p yillik o‘simliklar tashqi ko‘rinishi va biologik xususiyatlari bilan juda xilma-xildir. Mo‘tadil iqlimli kengliklarda ko‘p yillik o‘simliklarning ko‘pchilik guruhini o‘tsimon o‘simliklar, tropik zonalarda esa ko‘proq daraxt va butalar tashkil etadi. Ko‘pchilik o‘tsimon ko‘p yillik o‘simliklarning uzoq muddat yashashi ularda poya (ildizpoya, piyozchalar, tuganak piyozchalar) va ildizsimon maxsus (g‘amlaydigan) organlar mavjudligiga bog‘liq. Ko‘p yillik o‘simliklarning yashash muddati keskin farqlanadi va bir necha yildan tortib to 10 va 100 yilgacha, ba‘zan, hatto, 1000-yilgacha cho‘zilishi mumkin. Ayrim ko‘p yillik o‘simliklar yashash joyini o‘zgartirish va inson faoliyati natijasida bir yillik o‘simlikka aylanishi mumkin.

Manzarali daraxt va butalar

Daraxtlar — tanasi yog‘ochlashgan, asosan, bitta yog‘on tanali, baquvvat ildizli va keng shox-shabbali, baland bo‘yli ko‘p yillik o‘simliklardir. Bular guli, mevasi, poyasining eni, bo‘yi, shox-shabbasi va barglari bilan bir-biridan farq qiladi. Daraxtlar bo‘yiga qarab 3 guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh - 35 m dan baland bo‘lgan daraxtlarni o‘z ichiga olib, bularga chinor, terak, qora qayin, qarag‘ay kabilar kiradi.

Ikkinchi guruh - 25–35 m gacha bo‘lgan daraxtlarni o‘z ichiga olib, bularga qayrag‘och, yong‘oq, oq qayin, tol, qatrong‘i kabilar kiradi.

Uchinchi guruh - 25 m gacha bo‘lgan daraxtlarni o‘z ichiga olib, bularga zarang, chetan, shumurt kabilar kiradi.

Mevali daraxtlar ham shakliga qarab 3 guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh - shoxshabbasi ko‘p, baland bo‘lib o‘sadigan nok, gilos, yong‘oq, olmaning ayrim navlari kiradi;

Ikkinchi guruh - tanasi ko‘rimsiz, ildiz bachkilaridan ham ko‘payadigan, bo‘yi past bo‘lgan shaftoli, olmaning pakana xillari, olcha va olxo‘rining ayrim turlari kiradi;

Uchinchi guruh - birinchi va ikkinchi guruh oralig‘idagi o‘rta bo‘yli daraxtlar olma va o‘rikning ko‘pchilik xillari va navlari, nok, olchanning ayrim turlari kiradi.

Daraxtlarning doim yashil va barglarini har yili kuzda to‘kadigan xillari ham bor. Doim yashil daraxt barglari vaqt-vaqti bilan to‘kilib, o‘rniga yangisi chiqaveradi. Daraxtlar yoshi ularning kesilgan to‘nkasidan yoki o‘sib turgan ildiz bo‘g‘zidan (parmalab olingan o‘zagigacha), yog‘ochligidagi yillik halqalar soniga, shuningdek, daraxtlarning tashqi belgilari (bargining rangi, tanasining shakli, po‘stlog‘ining tusi va tuzilishi)ga qarab aniqlanadi.

Masalan, katta yoshdagi igna bargli daraxtlar bargining rangi ochroq, o‘sishtan to‘xtagan daraxtning shoxshabbasi yumaloq telpak gumbaz shaklida, tanasining pastki qismi yorilgan, qalin, o‘lik po‘stloq to‘qimalari bilan qoplangan, ba‘zan poyasi sirtida yashil, sariq va boshqa tusli buqoqlar paydo bo‘ladi. Yosh daraxtlar tik o‘sadi, shoxshabbasi cho‘ziq konussimon, po‘stlog‘i silliq, yaltiroq, igna bargli daraxtlar bargi sersuv, to‘q yashil. Daraxtlarni o‘g‘itlash yoki hosil berishini to‘xtatish bilan hayotini uzaytirish mumkin. Shaftoli daraxti 15—20, saksovul 50—60, terak 70—80, tok 100, tol 300, xandon pista 350, tut va yong‘oq 400, qarag‘ay, shumtol, zarang 700—1000, chinor 1000, eman 2000, shamshod 3000, mamont daraxti 6000-yil yashaydi. Daraxt insonlar uchun juda katta ahamiyatga ega. Masalan, daraxtlar karbonat angidrid (CO₂) yutib kislorod chiqaradi, insonlar esa kislorod yutib karbonat angidrid chiqaradi. Mana shu tariqa tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik shakllanadi.

Buta — poyasi yog‘ochlashgan, bo‘yi 2-3 m dan oshmaydigan bitta yoki bir nechta poya hosil qiladigan sershox ko‘p yillik o‘simlik. Butalar bir-biriga teng tana (poya) larning o‘sib chiqishi hamda past bo‘lishi bilan boshqa daraxtlardan farq qiladi. Bo‘yi yarim m dan past bo‘lgan, shoxlari yog‘ochlangan kalta o‘simliklar butacha deb ataladi. Butalarga ayniqsa, tog‘lar yonbag‘rida keng tarqalgan irg‘ay, singirtak, na‘matak, zirk, bodomcha, uchqat, madaniy o‘simliklardan anor, limon, qoraqat, ligustrum, nastarin kabi o‘simliklarni misol qilib keltirish mumkin.

Yarim butalar — ko‘p yillik yarim yog‘ochli-yarim o‘tsimon o‘simlik, buta va butalardan farqli o‘laroq, faqat kurtaklarning pastki qismi qotib qoladi va ko‘p yillar davomida qishda saqlanadi, yuqori qismi esa sovuq boshlanishi bilan o‘ladi, issiqlik boshlanishi bilan qayta o‘sadi. Yarim butalar odatda 80 sm dan yuqori emas, kamdan-kam

hollarda ular 150-200 smga yetadi. Yarim butalarga cho‘llarda keng tarqalgan yem-xashak o‘simliklardan izen, keyreuk, teresken, sarsazan, va shuvoq kabilar kiradi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

- 1.E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeveva “Manzarali daraxtlarni ko‘paytirish” Toshkent 2020
2. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoiri Rafiqova Botanika asoslari (o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2009
3. O‘. Prator, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkent 2010.
4. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev “Dendrologiya” Toshkent-2012.

